


XI. KORXONA VA TASHKILOTLARNING MOLIYAVIY NATIJALARI

2026-yil 1-mart holatiga

- I. Korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy natijalari
 - II. Korxonalar va tashkilotlarning debitorlik qarzdorligi holati
 - III. Korxonalar va tashkilotlarning kreditorlik qarzdorligi holati
 - IV. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi statistik ko'rsatkichlar bo'yicha tushuntirishlar
- I. Korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy natijalari

Yakuniy moliyaviy natijalarning yillar bo'yicha dinamikasi
(yanvar-fevral oylarida, mlrd so'm)




Mavzu bo'yicha ko'rsatkichlar:

[Tijorat korxonalarining foyda solig'ini to'lagunga qadar foydasi/zarari \(hududlar kesimida\)](#)
[Tijorat korxonalarining vazirlik va idoralar kesimida foyda solig'ini to'lagunga qadar foydasi \(zarari\)](#)
[Tijorat korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida foyda solig'ini to'lagunga qadar foydasi \(zarari\)](#)

II. Korxonalar va tashkilotlarning debitorlik qarzdorligi holati

Korxonalar va tashkilotlarning debitor qarzdorligi dinamikasi
(1- mart holatiga, mlrd so'm)





Hududlar kesimida debitor qarzdorlikning asosiy qismi Farg'ona shahrida 7 904,6 mlrd so'm, Uchko'rik tumanida 3 485,3 mlrd so'm, Qo'qon shahrida 658,6 mlrd so'm, Qo'shtepa tumanida 501,5 mlrd so'm, Quvasoy shahrida 380,6 mlrd so'm, Farg'ona tumanida 377,3 mlrd so'm va Dang'ara tumanida 225,0 mlrd so'mga to'g'ri keldi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha debitor qarzdorlikning eng ko'p ulushi ishlab chiqaradigan sanoatda 69,1 % (jami qarzdorlikdan), tashish va saqlashda 1,9 %, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 0,1 %, savdoda 25,0 % va elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havonikonditsiyalashda 2,4 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha debitor qarzdorlikning tarkibi (2026- yil 1- mart holatiga)

	Debitor qarzdorlik, mlrd so'm	shundan, muddati o'tgan qarzdorlik ulushi, % da
Jami	14 190,2	23,1
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	17,4	-
Ishlab chiqaradigan sanoat	9 803,2	22,2
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	354,4	-
Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish	39,5	0,3
Qurilish	112,2	0,6
Savdo	3 546,7	-
Tashish va saqlash	277,3	-
Ko'chmas mulk bilan operatsiyalar	4,5	-
Professional, ilmiy va texnik faoliyat	-	-
Boshqalar	35,0	-


Mavzu bo'yicha ko'rsatkichlar:

[Tijorat korxonalarining vazirlik va idoralar kesimida debitor qarzdorligi](#) [Tijorat korxonalarining vazirlik va idoralar kesimida muddati o'tgan debitor qarzdorligi](#)
[Tijorat korxonalarining debitor qarzdorligi \(hududlar kesimida\)](#)
[Tijorat korxonalarining muddati o'tgan debitor qarzdorligi \(hududlar kesimida\)](#) [Tijorat korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida debitor qarzdorligi](#) [Tijorat korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida muddati o'tgan debitor qarzdorligi](#)

III. Korxonalar va tashkilotlarning kreditorlik qarzdorligi holati

2026-yil 1-mart holatiga ko'ra, kreditor qarzdorlikning umumiy miqdori 10 258,9 mlrd so'm, shundan muddati o'tgani – 1 705,7 mlrd so'm (jami kreditor qarzdorlikning 16,6 % i)ni tashkil etdi.

[Korxonalar va tashkilotlarning kreditor qarzdorligi dinamikasi \(1- mart holatiga, mlrd so'm\)](#)



2026-yilning 1-mart holatiga kreditor qarzdorlikning asosiy qismi yetkazib beruvchilarga va pudratchilarga – 4 270,9 mlrd so'm (jami qarzdorlikning 41,6 % i), olingan bo'naklar – 2 811,4 mlrd so'm (27,4 %), ichki idoraviy qarzlari – 853,0 mlrd so'm (8,3 %) va budgetga to'lovlar bo'yicha qarzi – 378,0 mlrd so'm (3,7 %)ga to'g'ri keldi.

Muddati o'tgan kreditor qarzdorlik 2025-yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda 3,9 % ga ko'paygan.

Hududlar kesimida kreditor qarzdorlikning asosiy qismi Farg'ona shahrida 3 456,6 mlrd so'm, Uchko'prik tumanida 2 757,3 mlrd so'm, Qo'shtepa tumanida 820,8 mlrd so'm, Toshloq tumanida 787,2 mlrd so'm, Farg'ona tumanida 771,8 mlrd so'm va Qo'qon shahrida 705,5 mlrd so'm to'g'ri keldi.

Shuningdek, muddati o'tgan kreditor qarzdorlikning asosiy qismi Farg'ona shahrida 1 322,1 mlrd so'm, Farg'ona tumanida 383,5 mlrd so'mni tashkil etdi.

Mavzu bo'yicha ko'rsatkichlar:

[Tijorat korxonalarining kreditor qarzdorligi \(hududlar kesimida\)](#)

[Tijorat korxonalarining muddati o'tgan kreditor qarzdorligi \(hududlar kesimida\)](#) [Tijorat korxonalarining vazirlik va idoralar kesimida kreditor qarzdorligi](#) [Tijorat korxonalarining vazirlik va idoralar kesimida muddati o'tgan kreditor qarzdorligi](#)

[Tijorat korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida kreditor qarzdorligi](#) [Tijorat korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida muddati o'tgan kreditor qarzdorligi](#)



IV. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi statistik ko'rsatkichlar bo'yicha tushuntirishlar

Moliyaviy natijalar, debitor va kreditor qarzdorlikning har choraklik asosiy ko'rsatkichlari quyidagilar asosida shakllantiriladi:

a) 4 moliya (choraklik) "Tashkilotning moliyaviy ahvoli to'g'risida hisobot"ni taqdim etuvchi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq yuridik shaxs hisoblanuvchi tijorat tashkilotlari hamda ularning mulkiga ega bo'lgan, mulkni xo'jalik yuritish yoki operativ boshqaruvga olib, ushbu mulk bilan o'z majburiyatlariga javob beruvchi, shuningdek, soliq qonunchiligiga asosan mustaqil balansga va hisob raqamiga ega bo'lgan soliq to'lovchi alohida bo'linmalari ma'lumotlari bo'yicha;

b) budjet va boshqa notijorat tashkilotlar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar, fermer va dehqon xo'jaliklari, sug'urta tashkilotlari, banklar, kichik korxonalar va mikrofirmalarning ko'rsatkichlari kiritilmagan;

v) qarzdorlik bo'yicha ko'rsatkichlar avvalgi yillardan o'tib kelayotgan qarzlarni qo'shgan holda, hisobot davridan keyingi oyning 1-sanasi holatiga shakllantirilgan.

[Foydali havolalar](#)

[Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish muddatlari hamda ularning tarkibi va mazmuni to'g'risidagi nizom](#)
[Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar statistik tasniflagichining ro'yxati](#)

Mas'ul:
Tadbirkorlik subyektlari
kuzatuvlari bo'limi

Manzil: 150100, Farg'ona shahar,
Oq yo'l ko'chasi, 104 a-uy
Pochta: farstat@farstat.uz
Tel: 73 241-98-48 (4030)
